

QO'SHTEPA TUMAN IIB MIGRATSIYA VA FUQAROLIKNI RASMIYLASHTIRISH BO'LINMASI OGohlantiradi



O'zbekiston Respublikasi Prezidentinin 2009 yil 23 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4117-sonli hamda 2011 yil 5 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4262-sonli Farmonlariga asosan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga biometrik pasportlar berilishi boshlangan.

"O'zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti to'g'risida"ga Nizomning 3-bandida "**Pasport berilgan kundan boshlab**

10 yil davomida amalda bo'ladi." deb belgilab qo'yilgan hamda ushbu Nizomning 11-bandida "**Fuqaro pasportining amal qilish muddati tugagandan so'ng yoki familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili va millati o'zgargandan so'ng pasporti bir oy muddatda ID-kartaga almashtirilishi lozim**" deb belgilangan.

Fuqarolarimiz tomonidan pasportini o'z vaqtida ID-kartaga almashtirmasdan amal qilish muddatlarini o'tkazib yuborganliklari O'zbekiston Respublikasi MjtKning 223-moddasiga jarima solinishiga asos bo'ladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, fuqarolarimizdan amal qilish muddatlari tugayotgan biometrik pasportlarini o'z vaqtida ID-kartaga almashtirish uchun Qo'shstepta tuman IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasiga murojaat qilishlarini so'raymiz.

Qo'shstepta tuman IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasi.

[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#),

2022-05-30 23:55:54